
????Rishton tumanidan 96 nafar ziyoratchi muborak Haj safariga kuzatildi.
????Davlatimiz rahbarining tashabbusi, diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar tufayli bugun minglab vatandoshlarimiz o'z farzlarini emin-erkin bajarish baxtiga erishmoqda. Bu borada ularga davlatimiz tomonidan juda katta amaliy yordam ko'rsatilmoqda, qulay sharoit yaratib berilmokda.
????Tuman hokimligi vakillari va soha mutasaddilari, imomlar, jamoatchilik vakillari ziyoratchilarni kuzatish uchun Xo'ja Ilg'or MFYda joylashgan "Xo'ja Ilg'or" jome masjidida jam bo'ldilar.
????Alloh taoloning bayti sari yo'l olayotgan ziyoratchilar eson-omon Haj amallarini bajarib, yurtimizga sog'-salomat qaytib kelishlarini Yaratgandan so'rab duolar qilindi.
????Qayd etish joizki, ziyoratchilarga Makka va Madina shaharlarida barcha sharoitlarga ega mehmonxonalar xizmat ko'rsatib, tajribali ishchi guruh va malakali shifokorlar hamrohlik qiladi.

2023-06-12 10:39:29